

**ISLOM TARAQQIYOT BANKI VA O'ZBEKISTON****Nizomova Mehrangiz Jamoliddinzoda**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Bank ishi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: [nizomovamehrangiz@gmail.com](mailto:nizomovamehrangiz@gmail.com)**To'xtayeva Bahor Rashid qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Bank ishi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: [bahortoxtayeva05@gmail.com](mailto:bahortoxtayeva05@gmail.com)

**Abstract:** This article describes the period of cooperation between the Islamic Development Bank and Uzbekistan and analyzes the legal framework and economic aspects of cooperation between them.

**Key words :** IsDB,IPSDC,ACG

**Аннотация:** В данной статье описывается период сотрудничества Исламского банка развития с Узбекистаном и анализируются правовая база и экономические аспекты сотрудничества между ними.

**Ключевые слова:** ИБР, ИКРЧС, АКГ

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada Islom taraqqiyot bankingning O'zbekiston bilan hamkorligi davrlarga bo'lib yoritilgan va ular o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari va iqtisodiy jihatlari tahlil qilingan. Islom taraqqiyot banki guruhi bilan o'zaro aloqalarni yanada rivojlantirishga oid taklif berilgan.

**Kalit so'zlar :** ITB, XSRIK, AMG

O'zbekiston Islom taraqqiyot banki (ITB) ga 2003-yilning sentabrda Olma-Otadagi bankning yillik yig'ilishi doirasida qo'shildi va 2004-yilda O'zbekiston Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha islom korporatsiyasiga a'zo bo'ldi. ITBning O'zbekistondagi vakili o'z faoliyatini Toshkentda 2006-yilning oktabrida boshladi. Hozirgi kunda O'zbekiston ITB guruhiga kiruvchi yana 2ta tashkilotning a'ziligiga qo'shilish masalasini ko'rib chiqilmoqda. Bular Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasi (ICIEC) va Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (ITFC).

ITB va islomiy moliya bilan bog'liq harakatlar majmuini O'zbekiston uchun 3ta bosqichga bo'lib o'rganishimiz mumkin:

1. 2003-2018 yillar oralig'i;

2. 2019-2021-yillar oralig'i;

3. 2022-yil.

**1.2003-2018 yillar oralig'i**

O'zbekistonning ushbu bankga a'ziligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.08.2003 yildan kuchga kirgan "O'zbekiston Respublikasining Islom Taraqqiyot Bankiga a'ziligiga to'g'risida"gi 371-son qarori asos bo'lgan. Ushbu qarorning 4-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi belgilangan tartibda nominal qiymati 10 000 Islom dinori/SDR bo'lgan 250 aksiyaga to'lov jadvaliga muvofiq badallar to'lagan (1-rasmga qarang). Ushbu qarorning 5-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi raisi A.I. Axmedxodjayev O'zbekiston Respublikasidan ITB boshqaruvchisi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki raisi Z.S. Mirxo'jayev O'zbekiston Respublikasidan ITBi boshqaruvchisining o'rinbosari etib tayinlangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.02.2004 yildagi 65-son "ITBi bilan hamkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari

<https://conferencea.org>

to'g'risida"gi qarori (22.02.2021-yildan o'z kuchini yo'qotgan). Yuqoridagi qarorda 2004-2007-yillarda ITB bilan birgalikda amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalar ro'yxati :

- 1) loyixalar mazmuni;
- 2) loyixaning maqsadi;
- 3) ITB tomonidan moliyalashtiriladigan summa;
- 4) ma'sul rahbarlar belgilab qo'yilgan.

Xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasi (XSRIK) tomonidan 2010-yilda 5million dollar ustav jamg'armasi bilan tashkil etilgan " Toiba lizing" kompaniyasi ham xususiy sektor vakillariga o'zining shariatga muvofiq keladigan lizing ( ijara) xizmatlarini taqdim etib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib (2010-2017) mazkur kompaniya tomonidan 26,3 mln.dollarlik 200dan ortiq loyiha moliyalashtirilgan.

2018-yilning mart oyida O'zbekiston hukumati va ITFC o'rtasida savdo operatsiyalari moliyalashtirish maqsadida 100mln. dollarlik hadli bitim imzolandi.Unga ko'ra korporatsiya O'zbekistonning tashkilotga a'ziligiga qadar savdo loyihalarni moliyashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi va bugungi kungacha ITFC tomonidan Aziya Aliyans Bank, Trastbank va Kapitalbankka murobaha moliyalashtirish liniyasi taqdim etildi. 2018-yil 18-19-sentabr kunlari Toshkentda ITB guruhi va AMG " davra suhbat" o'tkazilib, ularning yakunlari bo'yicha O'zbekistonda istiqbolli dasturlar va loyihalarni amalga oshirish to'g'risida kelishib olindi va ITB guruhi tomonidan O'zbekiston Respublikasida 1,3 mlrd. dollar miqdoridagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi bilan ITB guruhi o'rtasida 2018 — 2021-yillarga mo'ljallangan Sheriklik strategiyasi imzolandi.


To'lov yillari	To'lanadigan nsumma : ID/SDR	AQSH dollariga teng miqdori
2003	250 000	347 500
2004	250 000	347 500
2005	250 000	347 500
2006	250 000	347 500
2007	250 000	347 500
2008	250 000	347 500
2009	250 000	347 500
2010	250 000	347 500
2011	250 000	347 500
2012	250 000	347 500
Jami	2 500 000	3 475 000

**1-rasm.**O'zbekiston ITB ga a'zolik uchun to'lagan "badallar"i yillar kesimida.

Moliyalashtirish usullari	Loyihalar soni	Mln. I.D	Mln. Doll.
Texnik yordam	5	0,8	1,1
Kredit	3	22,2	32,5
Maxsus yordam operatsiyalari	8	1,4	1,9

Bo'lib to'lashga sotish	11	292,4	446,0
Istisno	12	616,7	909,3
Qo'shma moliyalashtirish liniyalari	3	29,4	45,0
Kapital	1	3,2	5,0
Lizing	11	275,7	412,1
Savdoni moliyalashtirish	19	199,6	292,6
Jami	73	1441,4	2,145,5

2-rasm. O'zbekiston uchun Islom taraqqiyot banki guruhi portfeli moliyalashtirish kesimida.



3-rasm. O'zbekiston uchun ITBG tomonidan ajratilgan mablag'.

## 2. 2019-2021-yillar oralig'i

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.03.2019 yildagi PQ-4224-son "ITB guruhi va arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori imzolandi. Ushbu qarorga muvofiq ITB va AMG jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasqiqlangan (3-modda). O'zbekiston Respublikasining ITB guruhi va AMG bilan uzoq muddatli sherikligining asosiy yo'nalishlari hamda vazifalari etib quyidagilar belgilandi (2-modda):

- Energetika, yo'l-transport, kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, uy-joy qurilishi, bank-moliya tizimini hamda kichik va xususiy tadbirkorlik sektorini rivojlantirish, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarini takomillashtirish hamda respublika tarmoqlari va hududlarini kompleks rivojlantirishning boshqa yo'nalishlari bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga ITB guruhining, shu jumladan Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha islom korporatsiyasi (keyingi o'rinlarda — XSRBIK), Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (keyingi o'rinlarda — XISMK), Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasi (keyingi o'rinlarda — IEKSIK), Islom tadqiqot va ta'lim instituti, shuningdek, AMG jamg'armalarining moliyaviy mablag'larini jalb etish;
- Bank sektorida islomiy moliyalashtirish asoslarini joriy etish, davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini, jumladan vaqf-jamg'armalarni tashkil etish yo'li bilan qo'llab-quvvatlash dasturlarini birgalikda ishlab chiqish va O'zbekistonda tatbiq qilish;



- Respublika tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash, ularning eksport imkoniyatlarini mustahkamlash uchun XSRBIK, XISMK va IEKSIK moliyaviy resurslari va mahsulotlarini faol jalb etish;
- O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi salohiyatini oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.05.2019-yildagi 428-son "ITB va AMG jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorda ITB va AMG jamg'armalari bilan hamkorlikni kengaytirish bo'yicha harakatlar rejasini ("Yo'l xaritasi") to'liq keltirilgan.

2021-yil Toshkentda ITBi Boshqaruvchilar kengashining 46-yillik anjumani 02-04.09.2021 bo'lib o'tdi va unga 2500dan ortiq delegat tashrif buyurdi. Ilk qadam sifatida bir nechta sohaga taalluqli oltita investitsion loyiha, jumladan, kichik va o'rta korxonalarini (KO'K) qo'llab-quvvatlash loyihasi, shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq joylarida hayot farovonligini oshirishga qaratilgan loyihalar ma'qullangan. Doktor al Josir Xususiy sektorni rivojlantirishning Islom korporatsiyasi (ICD), Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (ITFC) va Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash bo'yicha Islom korporatsiyasi (ICIEC) kabi ITB guruhining shu'ba kompaniyalarini O'zbekistonda o'z faoliyatini oshirishga tayyorligini ta'kidlab o'tgan. Ushbu yig'ilish davomida TrastBank bilan 15 mln. AQSh dollari ajratish bo'yicha shartnoma imzolandi va memorandum imzolandi.

### 3.2022-yil

O'zbekistonda ITBi guruhiga kiruvchi XSTRK tijorat banklarida islom darchalarini ochish bo'yicha ish olib bormoqda. (mart oyi). Ushbu tashkilot va KapitalBank, TrastBank, AgroBank va Qishloq-qurilishBank o'rtasida islomiy darchalarni ochish bo'yicha maslahat kelishuvi imzolangan. Ushbu kelishuvga asoslangan birinchi tashrifning maqsadi banklarda ichki tartib-qoidalar qanday tuzilganligi va yo'lga qo'yilganligi, banklarda mijozlarga taklif qilinayotgan bank xizmati turlari va departamentlarning faoliyati bilan tanishish maqsadida, ularni ish faoliyatini o'rganish va baholashdir.

30.03.2022-yil Markaziy bankda Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (ITFC) vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda mehmonlarga joriy pul-kredit siyosati, tashqi sektor statistikasi, shuningdek, mamlakat bank tizimi haqida ma'lumot berildi. Muloqot davomida xususiy tadbirkotlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni kengaytirish istiqbollari alohida e'tibor berildi. Fevral oyi oxirgi haftaligida InfinBank Murobaha (Islomiy moliyalashtirish) taklif etdi. Aprel oyi ilk haftaligida Trastbank yuridik shaxslarga islomiy moliyalashtirish xizmatini taklif etdi.

**Offers :** It can be seen from the above analysis that cooperation with the IDB group will only benefit Uzbekistan. The reason is that the development of our economy will accelerate due to the financial resources received from them. Therefore, in our opinion, the opening of an IsDB branch in Uzbekistan will not only attract a large amount of financial resources, but also serve as a window for the opening of Islamic banks in our country.

**Предложения :** Из вышеприведенного анализа видно, что сотрудничество с группой ИБР пойдет только на пользу Узбекистану. Причина в том, что развитие нашей экономики ускорится за счет получаемых от них финансовых ресурсов. Поэтому, на наш взгляд, открытие филиала ИБР в Узбекистане не только привлечет большое количество финансовых ресурсов, но и послужит окном для открытия исламских банков в нашей стране.

**Takliflar :** Yuqoridagi tahlillardan shu narsa ko'rinib turibdiki, ITB guruhi bilan hamkorlik O'zbekistonga faqat foyda olib keladi. Sababi, ulardan olinadigan moliyaviy resurslar hisobiga iqtisodiyotimiz rivojlanishida yanada tezlashadi. Shunday ekan, bizning fikrimizcha O'zbekistonda ITBi filialini ochish katta miqdordagi moliyaviy resurslar jalb qilish bilan birgalikda, mamlakatimizda islom banklarini ochish uchun ham darcha vazifasini bajarib beradi deb o'ylaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar to'plami:

[1] "Islomiy moliya asoslari" /E.A.Baydaulet. – Toshkent : " O'zbekiston" NMIU, 2019.

<https://conferencea.org>

- [2] 371-сон 27.08.2003. O‘zbekiston Respublikasining Islom taraqqiyot bankiga a’zoliqi to‘g‘risidagi.
- [3] PQ-4224-сон 05.03.2019. Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
- [4] 65-сон 10.02.2004. Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
- [5] Nizomova Mehrangiz Jamoliddinzoda THE ROLE OF BANKS IN THE ECONOMY // Academicia Globe: Inderscience Research 3 (04), 196-198, 2022.
- [6] <https://toshvil.uz/oz/islom-tarakkiet-bankining-toskent-anzumani>